

INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI: SAMARALI USULLAR, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Zubaydova Nilufar

O‘qituvchi Samarqand davlat chet tillari instituti

Amonova Sevinch Ikromjon qizi

Talaba Samarqand davlat chet tillari instituti

sevinchai0306@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish metodikasi, samarali usullar, turli yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishning amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ingliz tilini o‘qitishda yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi va texnologiyalarning ta‘limdagi o‘rni keng tahlil qilinadi, o‘quvchilarni jalb qilish va motivatsiyani oshirishga qaratilgan strategiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, o‘qitish metodikasi, samarali usullar, zamonaviy texnologiyalar, motivatsiya, yondashuvlar.

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro aloqa va axborot almashinuvi vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Globalizatsiya davrida ingliz tilini bilish nafaqat xalqaro aloqalarda, balki ta‘lim va ish faoliyatida ham muhim bo‘lib qoldi. Shu boisdan, ingliz tilini samarali va muvaffaqiyatli o‘qitish usullari muhim masalaga aylandi. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida samarali usullar va yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, hamda motivatsiyaning ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

1. Ingliz tilini o‘qitish metodikasining asosiy jihatlari:

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida metodik yondashuvlar katta ahamiyatga ega.

Dastlabki an’anaviy usullar, masalan, grammatik tarjima va audiolingual yondashuvlar, grammatik qoidalarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Biroq bugungi kunda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy usullar ko‘proq muvaffaqiyatli bo‘lib, o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llash qobiliyatini oshiradi.

Samarali metodik yondashuvlar orasida quyidagilar alohida ajralib turadi:

Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching, CLT):

O'quvchilarni real hayotdagi vaziyatlarda tilni qo'llashga o'rgatish. Bu usul o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Audiolingual usul: Talabalar talaffuz va eshitish ko'nikmalarini takomillashtiradilar. Ushbu usul o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi til orqali doimiy muloqotga asoslanadi. Vazifa asosida o'qitish (Task-Based Learning, TBL): Bu yondashuvda o'quvchilar amaliy topshiriqlar orqali tilni o'rganadilar. Real hayotdagi topshiriqlar va vazifalar orqali tilni qo'llash amaliyoti rivojlantiriladi.

2. Zamonaviy texnologiyalarning o'rni:

Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o'qitishda katta inqilob yaratdi. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini jalb qilish o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishga va ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Onlayn platformalar (Duolingo, Memrise, Khan Academy) yordamida o'quvchilar mustaqil tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interaktiv darsliklar va videodarslar orqali o'quvchilarning eshitish va talaffuz qilish qobiliyatlari yaxshilanadi. Virtual sinf muhitlari (Zoom, Microsoft Teams) yordamida darslarni dunyoning istalgan burchagidan olib borish mumkin, bu esa geografik chegaralarni olib tashlaydi va global o'quv muhitini yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar nafaqat ingliz tilida, balki boshqa fanlar bo'yicha ham bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu ma'noda, texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada qulay va samarali qilishda katta rol o'ynaydi.

3. Motivatsiyaning o'qitishdagi ahamiyati:

O'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi o'qitish jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Motivatsiya o'quvchilarning qiziqishi va muvaffaqiyati uchun muhim bo'lib, ularning o'z bilimlarini rivojlantirishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantiradi. Motivatsiyani oshirish uchun quyidagi strategiyalar qo'llaniladi: Real hayotga bog'langan topshiriqlar: O'quvchilar ingliz tilini haqiqiy hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali darslar tashkil qilinadi.

Jamoaviy ishlash va o'zaro muloqot: O'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish orqali ular o'zlarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar va tilni faol qo'llaydilar.

Muvaffaqiyatlarni taqdirlash: Har bir kichik yutuqni tan olish va rag'batlantirish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Motivatsiya ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Ichki motivatsiya o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya imtihonlardan o‘tish yoki ishga kirish kabi tashqi omillarga asoslanadi. Har ikki turdagi motivatsiyani ham qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish zarur.

4. O‘qitishning integratsiyalashgan yondashuvi:

Integratsiyalashgan yondashuv ingliz tilini o‘rgatishda bir necha metod va yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning turli qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, ingliz tilini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish, ya‘ni Content-Based Instruction (CBI), o‘quvchilarga boshqa sohalar bo‘yicha bilim olish imkoniyatini yaratadi. Bunda ingliz tili darslari boshqa fanlar (masalan, tarix, geografiya, biologiya) bilan birgalikda olib boriladi, bu esa tilni o‘rganish jarayonini qiziqarli va amaliy qiladi.

5. Differentsial yondashuv:

O‘qitish jarayonida har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim. Differentsial yondashuv o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga mos ravishda darslarni tashkil etishdir. O‘quvchilarning til o‘rganish darajasi va uslubiga mos metodlarni tanlash orqali dars samaradorligini oshirish mumkin. Bu yondashuvda quyidagilar inobatga olinadi:

O‘quvchilarning ehtiyojlari: Har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish usuli va tezligi bor. Shuni hisobga olgan holda ta‘lim berish kerak. Metodik vositalarning mosligi: O‘quvchilarning ehtiyojlariga mos metodik materiallar tanlanadi va qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitishda samarali usullar, innovatsion texnologiyalar va motivatsiyani oshirish strategiyalari asosiy rol o‘ynaydi. Kommunikativ yondashuv, gamifikatsiya, va differentsial o‘qitish usullari zamonaviy ta‘limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ta‘lim jarayonida texnologiyalarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning ingliz tilini amaliy jihatdan muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish strategiyalari ularning o‘qish jarayonidagi qiziqishlarini doimiy ushlab turadi va tilni tez o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar ta‘lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va amaliy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Ingliz tilini o‘qitishda individual va integratsiyalashgan yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘z maqsadlariga tezroq erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Longman.
2. Zubaydova N. (2020) *The teaching of English for specific purposes*.
3. Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Reading and Writing*. Routledge.
4. R. A Utkurovich, R. G Utkurovna. "Teaching english language to primary level pupils at school" *ijodkor o'qituvchi* 3 (36), 103-105, 2024.
5. Brown, H. D. (2000). *Principles of Language Learning and Teaching*. Longman.
6. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). *Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions*. *Contemporary Educational Psychology*.
7. M Orzikulova, G Rustamova. "Methods of improving speaking skills for kids" *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 151-154, 2024.
8. Gardner, R. C. (1985). *Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation*. Edward Arnold.
9. Shokhista, R. (2023). *The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills* Rustamova Shokhista Sharifovna. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 25-28.
10. Rustamova, S. S. (2023, January). *The Importance Of Speaking Activities In Teaching English*. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
11. Sharifovna, R. S. (2022). *Teaching Spoken English To Upper Class Pupils*. *Confrencea*, 6(6), 87-89.
12. Sharifovna, R. S. (2022). *Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes*. *Journal of new century innovations*, 14(1), 86-98.
13. Sharipovna, R. S. *Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan*. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (2), 1-5.
14. Suleymanova, N. M. (2020). *On The Nominative Nature Of The Sentence*. *Theoretical & Applied Science*, (4), 307-309.
15. Сулейманова, Н. М. (2017). *Номинативный аспект речевого процесса*. In *Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives* (pp. 76-82).

16. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gaping Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 805-809.
17. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In *Инновации В Современном Языковом Образовании* (pp. 61-65).
18. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. *Miasto Przyszłości*, 50, 548-553.
19. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. *Tamaddun Nuri Jurnal*, 5(56), 380-383.
20. Axmedova, D., & Zarmaskhonov, S. (2024, February). Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 205-207).
21. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notiqlikning Milliy Madaniy Va Lisoniy Tahlili (O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Ia Karimov Nutqlari Asosida). In *Международная конференция академических наук* (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).
22. Makhmudova, G. N., & Gulomova, N. F. (2023). Unlocking the potential of the digital econ-omy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. *π-Economy*, 16 (4), 7–25. DOI: <https://doi.org/10.18721/JE.16401>.
23. Makhmudova, G., Gulomova, N., & Mirzaev, D. (2022). Legal aspects of cryptocurrency and blockchain technologies: Uzbekistan and foreign experience.
24. Sattarova, D. (2023). Kommunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. *Молодые ученые*, 1(22), 41-43.
25. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.